

ILMNING FAZILATI BORASIDA KELGAN HADISLAR TAHLILLI.

Po'latova Dildora Aziz qizi

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

"Islomshunoslik" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

"Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini o'r ganish

ICESCO" kafedrasi dotsenti M. Agzamova

Annotatsiya: Maqolada ilmning jamiyatdagi o'rni, insonlarning ruhiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Hadislar orqali ilmning takomillashishi, insoniyat uchun foydalari va muqaddas bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tahlil qilinib, asosiy maqsad ilmga bo'lgan yondashuvni o'zgartirib, jamiyatda bilim olishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishdan iborat. Bu orqali insoniy qadriyatlarni yanada oshirish, kengaytirish hamda bilim olishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ilm, payg'ambar, fazilat, johiliyat, izlanish, ahamiyat, hadis, amal, tarqatish, zikr, din, niyat.

Ilm – insoniyat tarixidagi eng qimmatli meroslardan biridir. U nafaqat bilimlarni to'plashni, balki ularni amaliyotda qo'llash jarayonini ham o'z ichiga oladi. Ilmga bo'lgan qiziqish va izlanish insonni uzlusiz rivojlanishga, yangi fikrlar va ixtiolar yaratishga undaydi. Bugungi kundagi global muammolar – iqlim o'zgarishi, mintaqaviy nizolar va iqtisodiy inqirozlar – barchani ilm, ta'lim va izlanishlarga ko'proq e'tibor qaratishga undamoqda. Har bir inson ilmga intilishi va uni egallashi orqali jamiyat rivojiga hissa qo'sha oladi. Ilm shaxsiy rivojlanish, o'zaro munosabatlar va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositadir. Insonga o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, shaxsiyatini shakllantirish va kelajak uchun mustahkam poydevor yaratishda ilmning ahamiyati juda kattadir.

Inson hayotini go'zal o'tkazishga intilishi tabiiydir. Hayotning go'zalligi va farovonligi, jamiyatning taraqqiyoti faqat ilm-fan orqali amalga oshadi. Qayerda ilm-fan rivojlanib, rivoj topgan bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot kuzatiladi. Har bir soha va barcha ishlar o'ziga xos bilimlarni talab qiladi. Agar kishi o'z ishida muvaffaqiyat qozonmoqchi bo'lsa, u o'sha sohaning ilmiga ega bo'lishi muhimdir. Ilm olish nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki jamiyatning taraqqiyoti uchun ham zarurdir. Buni e'tiborga olib, har bir inson o'z sohasida bilim olishga va o'zini rivojlantirishga intilishi lozim. Bu yo'l orqali buzilgan joylarni tuzatishga, yangi imkoniyatlarni yaratishga va insoniyatning davomiy taraqqiyotiga hissa qo'shishiga erishiladi.

Ilmning qanchalar kerakligini juda yaxshi tushungan, Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm borasida qimmatli fikrlarini aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishlari, turkistonliklarning siyosiy ongi borasidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o‘rganilgan. Behbudiy ilm haqida ham o‘z fikrlarini aytib o‘tgan. Uning “Ilm mushtarakdur. Bilgannikidur”, “Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatning foydasi yo‘q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo‘q”¹ kabi purhikmat satrlarni ham aytib o‘tgan. Bu hikmatlar ilmning yagona va boshqaruvchi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ilm, shakl va mohiyat jihatidan zarurdir. Bu fikr bir qonun sifatida, ilmgaga intilishining va birgalikdagi rivojlanishning muhimligini ta’kidlaydi. Har bir inson ilm orqali taraqqiyotga erishishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi mumkin. Ilm millat va davlat hayotidagi ahamiyatni oydinlashtiradi. Ilmga ega bo‘lmagan millat va davlat kuchsiz, zaif va xavf ostida qolishi mumkin. Ilm - bu taraqqiyotga yo‘l ochadigan kuchdir. Ilmga asoslangan davlat, o‘z xalqining farovonligini va mustaqilligini ta’minlaydi. Har qanday ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish ilmga asoslangan bo‘lishi lozim. Behbudiy tomonidan aytilgan bu hikmatlar ilmning ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Ilm, shaxsiy rivojlanishdan tortib, butun millat va davlatlarning kuch-qudratini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Har bir inson va millat ilmga intilib, taraqqiyotga erishishi va yaxshi hayotga ega bo‘lishi uchun zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich insonga e’tibor va sifatli ta’limga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratib, ayni yo‘nalishlarni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan istiqbolli taklif hamda tashabbuslarni ilgari surdi. Ilm-ma’rifat barcha ezguliklarning, bunyodkorliklarning zamini sifatida qadrlanadi. Islom dini nozil qilinishining bosh sababi ham, bu muqaddas dinning asl mohiyati ham insonni ulug‘lash, uni ilm-u ma’rifatga, tinchlik-totuvlikka, yaratuvchanlikka targ‘ib etishdir. Bu ezgu g‘oyaning yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga hamohangligi xalqning katta baxti hisoblanadi.

Islom dinida ta’limga, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, islam manbalarida ilmning fazilati bayon etilib, insonlarning hayotidagi o‘rnini eslatib o‘tiladi. Xususan, “Zumar” surasining 9-oyatida “Ayting, biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?” – deb marhamat qiladi. Alloh ilm fazilati faqat olim kishigagina xos bo‘lgani uchun olim bilan johilni teng ko‘rmadi va oyatning davomida “Darhaqiqat, faqat aql egalarigina eslatma olurlar” – deb marhamat qildi. Mazkur oyatda Alloh o‘z amr va qaytariqlarini faqat olim kishigina tushunishi va anglashini istisno uslubi orqali bildirdi.

Islom dini jaholat bilan kurashishda ilm va ma’rifatga katta e’tibor beradi. “Ilm – saodat kaliti, ilmsizlik – jaholatdir,” degan gapni unutmagan holda ilm olishga

¹ <https://iiau.uz/oz/news/2213>. 15.05.2025

ko‘proq intilish, harakat qilish lozim. Haqiqatdan ham ilm olish insonni kamolotga, yetuklikka olib boradi. Islom dinida ham bu haqda ko‘plab misollar mavjud, chunki ilm olish va bilimga ega bo‘lish odamning ruhini rivojlantiradi hamda uning hayotini yaxshilaydi. Alloh Muhammad (s.a.v)ni payg‘ambar qilib yuborgan vaqtida odamlar jaholat botqog‘iga butunlay botgan edi. “O‘qi” so‘zining ilk vahiy oyati bo‘lishining asosiy hikmati ham shunda, ya’ni insonlarni jaholat botqog‘idan chiqarib, o‘qib-o‘rganishga va ilm olishga targ‘ib etishdir. Oyatda kelgan “Iqro” (o‘qi) so‘zi ikki marta takrorlanadi. Birinchi o‘qi so‘zidan keyin insonni juda haqir va arzimas laxta qon holati zikr qilindi. Ikkinchisi marta kelgan “o‘qi” so‘zidan keyin esa insonni qadrli va sharaflı ilm-ma’rifatli holati bayon qilindi. Kim dunyoda o‘qib-o‘rgansa, ilm hosil qilsa, qadr-qiyomatga ega bo‘ladi. Ilm olish o‘qish bilan hosil bo‘ladi. Taom tanaga ozuqa bo‘lganidek, mutolaa ruh va aqlning ozuqasidir.

Ilm fazilatini faqat johillargina anglamaydi. Chunki bu fazilat ilm tufayli bilinadi. Bu uning eng yuqori darajasidir. Johiliyat davridagi insonlar ilm fazliga olib boradigan ilmni boy berishgach uni unutib qo‘ydilar, ilm ahlini nazarlariga ilmay, ularni pastkashga chiqardilar, topgan mol-dunyolari va nafslari xohlagan narsalarni ilm bilan mashg‘ul bo‘lishdan afzal va foydali deb o‘yladilar. “Mansur-ul xikam” asarida Ibn Mu’tazz shunday deydi: “Olim johilni taniydi, chunki u o‘zi ilgari johil bo‘lgan. Johil esa olimni tanimaydi, chunki u ilgari olim bo‘lmagan”. Johiliyat davridagi insonlar ilm va ilm ahlidan zohidlar dunyodan qanday yuz o‘girsa, shunday yuz o‘girib, qaysarlar qochgandek qochadilar. Kim nimani bilmasa, shuni o‘ziga dushman tutadi². “Mujodala” surasining 11-oyatida marhamat qiladi: “Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur”. Bu oyat ilm va imonning naqadar ulug‘ ne’mat ekanini anglatadi. Ilmning fazilati Qur’on va hadislarda ko‘p bor ta’kidlangan, ilm insonni Allohnинг qudratini anglashga, to‘g‘ri yo‘ldan yurishga va savobli hayot kechirishga yordam beradi. Bu oyatning mazmunidan anglash mumkinki, ilm Alloh huzurida yuqori darajaga erishish uchun asosiy omillardan biridir.

Alloh Qur’onda ilmni ulug‘lab, uni insoniyatni zalolatdan hidoyatga olib chiqadigan asosiy vosita sifatida e’tirof etgan. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) ilmning ahamiyati haqida ko‘plab hadislarida ta’kidlaganlar: Anas (r.a)dan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v): “Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir” – dedilar³. Ushbu hadis ilmning har bir inson uchun naqadar muhim ekanini va uni egallash zaruratini ochib beradi. Hadisda zikr etilgan “ilm” tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, uning tarkibiga diniy va dunyoviy ilmlar kiradi. Har bir inson Qur’on va sunnatga asoslangan bilimlarni egallashi, e’tiqod va odob-qoidalarni o‘rganishi zarur. To‘g‘ri hayot tarzi va jamiyatda odil inson bo‘lib yashash uchun ushbu bilimlar muhim

² Abulxasan Movardiy Dunyo va din odobi. Toshkent.: “Hilol-Nashr”, 2021. – B.36.

³ Kimiyoi saodat: diniy-ma’rifiy / Abu Xomid G‘azzoliy. – Toshkent.: “Munir” nashriyoti, 2021. – B.127.

ahamiyatga ega. Dunyoviy ilmlar ham insonlar uchun zaruratdir, ular jamiyat rivoji, xalq farovonligi va umuman insoniyatning taraqqiyotini ta'minlaydi. Masalan, tibbiyot, texnologiya va iqtisod kabi sohalar jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirishda katta rol o'ynaydi. Hadisda ilm talab qilishning har bir inson uchun farz ekani ta'kidlangan. Bu nafaqat erkaklar, balki ayollar uchun ham birdek zarurdir. Har bir inson o'z sharoitiga mos ravishda ilm olishga harakat qilishi lozim.

Ilm insoniyat rivoji uchun muhim o'rinn tutgan. Payg'ambar (a.s)lar ham ortlarida moliyaviy boyliklar qoldirmaganlar. Buning o'rniga, ular insonlarga haqiqatni, axloqni va ma'rifatni o'rgatuvchi ilm va bilimlarni qoldirganlar. Bu ilmga ega bo'lish, hech shubhasiz, insonlar uchun haqiqiy muvaffaqiyat va baxt manbai hisoblanadi. Kimki ilmga ega bo'lsa, ular hayotda eng yaxshi yo'lni tanlaydi va yaxshi ishlarga erishadi. Ilmning kuchi shundaki, u insonlarni jaholatdan chiqarib, ularni o'z maqsadlariga yetishga yordam beradi va ularning fikrlarini kengaytiradi. Ilm olish va uni amalda qo'llash har bir insonning burchi, bu orqali nafaqat o'z hayotini, balki atrofdagi jamiyatni ham yaxshilashi mumkin. Ilm Payg'ambarlarning merosi va uni egallah har kim uchun eng katta xayrli ishdir.

Quyidagi hadisi sharifda: Abu Dardo Rasululloh (s.a.v)dan quyidagilarni eshitdim dedilar. "Kim ilm yo'lini tutsa, Alloh uni jannat yo'lliga yo'llab qo'yadi. Farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo'lib, qanotlarini yozib turadilar. Olim kishi uchun yer – osmondagи mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig'for aytadilar. Olimning obidga nisbatan fazilati to'lin oyning yulduzlarga ko'ra fazliga o'xshaydi. Ulamolar payg'ambarlarning merosxo'ridir. Payg'ambarlar dinor va dirhamlarni meros qoldirmadilar, ular faqatgina ilmni meros qoldirganlar. Kimki uni olsa, to'liq nasiba olibdi" – dedilar⁴. Jannatga kirishning yo'llaridan biri jamiyatga foydasi tegadigan ilmni egallahshdir. Faqat diniy ilmlar bilan kifoyalanib qolish kerak emas, jamiyatga zarur soha vakillari ham bo'lish lozimdir. Ilmli insonlarni quyoshga o'xshatadilar, chunki ular kirgan joyini yoritadilar. Qorong'ulikda qolgan har bir kishi unga muhtoj bo'ladi. Yuksak pog'onalarga ilm narvonni bilan chiqiladi. Ilm haqni botildan, yaxshini yomondan va to'g'roni buzuqdan ajratib beradi. Ilm ibodatlarning afzalidir. Ulamolar qadrlangan zamон va makonda doimo yaxshiliklar bo'ladi. Ular payg'ambarlarning merosxo'ri, ilm-ma'rifatni xalqqa yetkazish vazifasini zimmasiga olgan insonlardir. Ular ilm orqasidan mol-dunyo, shuhrat va martabani qasd qilmaydi.

Jismimizning har kuni ozuqa talab qilganidek, ruhimiz ham ozuqa talab qiladi. Ruhning ozuqasi bu ilimdir. Bejizga Rasullulloh (s.a.v): "Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir", – demaganlar. Olim dinni tiriltirish, himoya qilish va ummatning kelajagi uchun jon-jahdi bilan tirishadi. Olimlari bo'lмаган jamiyat halokatga yuz tutadi. Chunki bu jamiyatda odamlar bilmagan narsasini johillardan so'raydi. Ular

⁴ Tanbehul g'ofilin: diniy-ma'rifiy / Al-Faqiq Abu Lays as-Samarqandiy. – Toshkent: "Munir" nashriyoti, 2021. – B.365.

noto‘g‘ri fatvo berib, adashtiradi. Xolis niyatli olimlarning borligi odamlarning adashmasligi garovidir. Insonga dunyoda ham, oxiratda ham ilmdan ko‘ra ko‘proq foyda, jaholatdan-da ko‘proq zarar beruvchi narsa yo‘q. Agar inson johil bo‘lsayu, o‘z johilligini tushunmasa, unda uning holi voy bo‘ladi. Turmushning farovon bo‘lishi, jamiyatning taraqqiy etishi esa faqat ilm-fan bilan bo‘ladi. Inson ilm orqali dunyo va oxiratini obod qiladi. Insonning bilim olishi, salohiyatli fuqaro bo‘lib ulg‘ayishi va el-yurt manfaati uchun xizmat qilishi har doim dolzarb masala bo‘lib kelgan va bo‘lib qolaveradi ham. Tarixdan ma’lumki, qaysi bir mamlakatda ilm va ilm olishlik rivojlangan bo‘lsa o‘sha mamlakat har tarafdan taraqqiy topgan. Ilm-fan bor ekan bu dunyo ham taraqqiy etib ketaveradi. Ilm bo‘lmasa insoniyat jaholat botqog‘iga tushib qoladi.

Abu Nuaym Komil ibn Ziyod rivoyat qiladi: Bir kuni Ali ibn Abu Tolib qo‘limdan tutib, sahro tomonga yetakladi. Saxroga yetib borgach, u zot bir joyga o‘tirdi. So‘ngra, biroz nafas rostlagach, bunday dedi: Ey Komil, qalblar idishga o‘xshaydi. Eng yaxshi qalb – eng extiyotkor qalbdir. Bu gaplarimni eslab qol. Insonlar uch turli bo‘ladi: Birinchisi – Robboniy olim. Ikkinchisi – najot yo‘lidagi tolibi ilm. Uchinchisi – ilm bilan ishi bo‘lmaydigan olim. Uchinchi toifadagi odamlar har xil g‘avg‘olarga aralashadigan, bo‘lar bo‘lmas narsalarga ergashib ketadigan, har xil rangga moyil odamlardir. Bunday odamlar ilm nuridan bahra olmaydi, ishonchli asosga tayanmaydilar. Ilm moldan yaxshiroqdir, chunki ilm seni qo‘riqlaydi, molni esa sen qo‘riqlaysan. Ilmni ishlatsang, kamaymaydi, molni ishlatsang kamayadi. Ilm olim uchun tiriklikda toat, vafot etgandan keyin esa go‘zal xotiradir. Mol esa dunyo yo‘q bo‘lishi bilan zavol topadi. Mol – dunyo to‘plovchilar tiriklik chog‘idayoq o‘lib bo‘lgan bo‘ladi, ulamolar esa dunyo turguncha turishadi, o‘zlari yo‘q bo‘lsa ham, qilib ketgan xayrli ishlari qalblarda doimo barhayotdir⁵. Ilm qalb va ongda joylashadi va u egasidan himoya va xavfsizlikni talab qilmaydi.

Ilm – eng fazilatli amaldir, chunki u ikki dunyo saodatining kalitidir. Inson ilm va ma’rifat bilangina chinakam hayotdir. Ilm insonlarga dunyo va oxiratda eng to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchidur. U tolibi ilmni saxiy, juvonnard, kamtarin, jur’atli, shikastadil, iffatlil bo‘lish baxtiga erishtiradi. Baxillik, qizg‘anchiqlik, qo‘rkoq va jur’atsizlik, manmanlik, isrofgarchilik kabi yomon axloqlardan o‘zini saqlab, kishilar ko‘rganlarida suhbatiga oshiqadigan go‘zal hulq egasi bo‘lib kamol topishiga sabab bo‘ladi. Ilm insonga nima foyda-yu, nima zarar ekanini bildiradi. Inson orzu maqsadlariga ilm orqali yetishadi⁶.

Hozirgi kunda ilm olish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatlar va davlatlar taraqqiyoti uchun ham hal qiluvchi omilga aylangan. Biroq, dunyoning ko‘plab

⁵ Solihlar gulshani. Zayriyev Abdulhamid, G‘iyosiddin Habibulloh. – Toshkent.: “Hilol-Nashr”, 2021. – B.154.

⁶ Ilm olish sirlari: diniy-ma’rifiy / Imom Zarnuij. – Toshkent: “Book Media Shop” MChJ qoshidagi “Munir” nashriyoti, 2023. – B.10-11.

hududlarida sifatli ta'lim olish global muammo bo'lib qolmoqda. Ayrim mamlakatlarda yetarli sharoit yo'qligi sababli yoshlar ilm olish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqda. O'zbekistonda esa, keyingi yillarda ilm-fan va ta'lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlarda ilm olish uchun xalqaro grantlar, stipendiyalar va almashinuv dasturlari yo'lga qo'yildi. Dunyoning yetakchi universitetlari bilan hamkorliklar kuchaytirilib, O'zbekistonda ularning filiallari ochildi. Bundan tashqari, mahalliy oliy ta'lim muassasalarida sifatli o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, zamonaviy laboratoriyalarni jihozlash va ilg'or ta'lim metodikalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu imkoniyatlar nafaqat yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga, balki ularni kelajakda mamlakatning yetakchi mutaxassislari va ilm-fan namoyandalari bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. <https://iau.uz/oz/news/2213>
2. Shayx Nuriddin Xoliqnazar. YOSHLARGA NASIHATIM [Matn]/Shayx Nuriddin Xoliqnazar. – Toshkent: “Shamsiddinxon Boboxonov” NMIU, 2024. – 224 b.
3. Abulxasan Movardiyan Dunyo va din odobi. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2021. – 456 b.
4. Kimiyoi saodat: diniy-ma'rifiy / Abu Xomid G'azzoliy. – Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2021. – 233 b.
5. Tanbehul g'ofilin: diniy-ma'rifiy / Al-Faqiq Abu Lays as-Samarqandiy. – Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2021. – 592 b.
6. Solihlar gulshani. Zayriyev Abdulhamid, G'iyosiddin Habibulloh. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2021. – 432 b.
7. Ilm olish sirlari: diniy-ma'rifiy / Imom Zarnujiy. – Toshkent: “Book Media Shop” MChJ qoshidagi “Munir” nashriyoti, 2023. – 176 b.